



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

POSSIBILITIES OF ORGANIZING RECREATION CENTERS AND PROVIDING SERVICES TO TOURISTS IN THE ZAMINSUV BASIN

Makhfuzा Sangirova

Lecturer

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Recreation, tourism, landscape, camping, guest houses, tourist village.

Received: 12.12.22

Accepted: 14.12.22

Published: 16.12.22

Abstract: This article examines the recreational resources of the Zominsuv Basin and its role and importance in the development of tourism in the region.

ZOMINSUV HAVZASIDA DAM OLISH MASKANLARINI TASHKIL QILISH VA TURISTLARGA XIZMAT KO'RSATISH IMKONIYATLARI

Makhfuzা Sangirova

O'qituvchi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: Rekreatsiya, turizm, lanshaft, kemping, mehmon uylari, turistik qishloq.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zominsuv havzasining rekreatsion resurs imkoniyatlar va uning hududdagi turizmni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati o'rganilgan.

ВОЗМОЖНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ БАЗ ОТДЫХА И ОБСЛУЖИВАНИЯ ТУРИСТОВ В ЗАМИНСУВСКОЙ КОТЛОВИНЕ

Махфуза Сангирова

преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Отдых, туризм, ландшафт, кемпинг, гостевые дома, рассматриваются рекреационные ресурсы туристическая деревня.

KIRISH

O‘zbekistondagi tog‘ tizmalari tabiatining go‘zalligi va havosining musoffoligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Turkiston tog‘ tizmasi hududida joylashgan Zominsuv havzasiga bejiz “O‘zbekiston Shvetsariyasi” deb ta’rif berilmagan. Bugungi kunda Zominsuv havzasi tabiatidan zavq olish va dam olish maqsadida nafaqat mahaliy turistlar, balki xalqaro turistlar oqimi ham yildan-yilga ko‘payib borayotganligini kuzatish mumkin.

Hozirgi vaqtda mahallyi aholini ish bilan ta’minalashda, hududlarda turizmni rivojlantirish ham muhim rol o‘ynamoqda. Turizmning tarmoqlanishi mahallyi xalqlar bandligini oshishiga tez ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Fransiyaning turistik markazlaridan biri bo‘lgan Nitssa shahrida faol ish turlari orasida turizm birinchi o‘rinda turadi. Bu soha shahar aholisining 50 % dan ko‘proq‘ini ish bilan ta’minalaydi. So‘nggi 20 yil davomida turizm xalqaro iqtisodiyotning yirik tarmoqlariga kirib keldi.

ASOSIY QISM

Shuni ta’kidlash kerakki, chet el turistik firmalari ekzotik tabiiy geografik ob’yeektlarni juda yuqori baholaydilar va qadrlaydilar, ularni keng reklama qiladi va ulardan maksimal darajada foydalanadish mumkin. Keyingi vaqtda turizmga tog‘li hududlardagi o‘zgarishlarning “katalizatori” sifatida qaralmoqda [1. 291 b].

Biz tadqiqot olib borayotgan Zominsuv havzasida turizmini rivojlantirish orqali mahallyi aholini ma’lum miqdorda ish bilan ta’minalashga erishiladi. Zominsuv havzasining yuqori mintaqasida turizmni ko‘plab turlarini rivojlantirish va yo‘lga qo‘yishda tabiiy geografik sharoitini xam hisobga olish lozim.

Zominsuv havzasida turizmni rivojlantirish orqali, tog‘li mintaqalarda yashovchi mahallyi aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayotini tubdan o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Zominsuv havzasining yuqori mintaqalarida mahallyi aholining anan’aviy tirikchilik manbai, shu vaqtga qadar dehqonchilik va chorvachilik bo‘lib kelgan. Bu sohalarni tog‘li mintaqalarda keng miqyosda rivojlantirish imkoniyatlari yildan-yilga cheklanib bormoqda. Agar chorva mollarini tuyoq soni oshiriladigan bo‘lsa, tog‘ mintaqasining o‘simglik olamiga katta zarar yetkaziladi. Bu o‘z navbatida chorva mollarini sonini ma’lum miqdordan oshirmsalikni talab qiladi. Shuningdek, tog‘ relyefidan kelib chiqib dehqonchilik qilinadigan yer maydonlari ham cheklanganligi hammaga ma’lum [3. 56 b].

Bu ikkala sohani ham hudud omilidan kelib chiqqan holda keng miqyosda rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan. Imkoniyatdan ko‘proq foydalanish tog‘ tabiatining bir butunligiga va tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Tog‘li hududlardagi tabiiy sharoit ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish uchun doimo o‘ziga xos to‘sinq bo‘lib kelgan. Ishlab chiqarish korxonalari bo‘limganidan so‘ng, mahalliy aholini ish bilan ta’minalash aktual muammo bo‘lib qolmoqda. Bizning fikrimizcha, tog‘li hududlarda mahalliy aholining ish bilan ta’minalashning eng optimal yo‘li – xalqaro tog‘ turizmini rivojlantirish va o‘z navbatida sayyoohlarga xizmat ko‘rsatish turlarini ko‘paytirish orqali bir necha yuzlab ish o‘rinlarini yaratadigan loyihamlar ishlab chiqish lozim.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning boshqa tog‘li mintaqalari singari, Turkiston tizmasida ham xalqaro tog‘ turizmini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, tabiat qo‘ynida dam oluvchilar uchun barcha qulayliklarga ega bo‘lgan ko‘plab dam olish maskanlari (kempinglar, mehmon uylari) va sog‘lomlashtirish komplekslari barpo qilinmoqda. Shu boisdan ham tog‘ tabiat qo‘ynida dam olishni xohlovchi sayyoohlarning soni yildan-yilga tadrijiy ravishda ortib bormoqda (1-jadvala qarang).

1-jadval

Zomin milliy tabiat bog‘iga sayyoohlar tashrifi

Nº	Mahalliy turistlar soni	Xorijlik sayyoohlar soni	Yillar
1	53270 ta	173 ta	2015 y
2	61380 ta	270 ta	2016 y
3	63783 ta	984 ta	2017 y
4	66334 ta	933 ta	2018 y
5	69240 ta	1012 ta	2019 y

Ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘ri bo‘lgan Zominsuv havzasiga tashrif buyurayotgan turistlar (ham mahalliy, ham xorijiy) miqdori yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Jumladan, 2019 yilda Zomin milliy tabiat bog‘iga dam olish uchun 69240 ta mahalliy sayyoohlar bilan 1012 ta xorijlik sayyoohlar tashrif buyurgan. Sayyoohlar soni ortishining o‘ziga xos iqtisodiy jihatlariga e’tibor qaratsak: Zomin milliy tabiat bog‘iga kirib dam oluvchi sayyoohlar uchun eng kam ish haqining 0,05 barobarida to‘lovlar belgilangan. 2018 yil Zomin milliy tabiat bog‘ida bir sutkada bir marta kirib chiqish uchun 9832 so‘m narx belgilangan edi. Uncha katta bo‘limgan ushbu to‘lovlar orqali Zomin milliy tabiat bog‘i ma’muriyati 2018 yilda 588 862 000 so‘m mablag‘ni davlat g‘aznasiga tushim qildi. Ishlab topilayotgan mablag‘lar Zomin milliy tabiat bog‘i tabiatini sof holida saqlashga sarflamoqda.

Zomin milliy tabiat bog‘iga 2019 yildagi sayyoohlarning tashrifini oylar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsa, eng ko‘pi iyul oyiga (17023), eng kami dekabr oyiga (219) to‘g‘ri kelmoqda (2-jadvalga qarang). Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, iyul va dekabr oylarida sayyoohlar tashrifi bo‘yicha keskin tafovutlar borligi ko‘zga tashlanadi. Qish fasllarida ham tibbiyot, sport, gastroturizm va qolaversa, turli xil “pati”lar, marafonlar tashkil qilish orqali sayyoohlar tashrifini ko‘paytirish mumkin.

2-jadval

2019 yilda Zomin milliy tabiat bog‘iga sayyoohlar tashrifi

№	Oylar	Jami	Shu jumladan		
			Mahalliy sayyoхlar	Xorijlik sayyoхlar	Summa ming so‘mda
1	Yanvar	316	294	22	2725
2	Fevral	272	252	20	2342
3	Mart	793	763	30	6831
4	Aprel	3072	2939	133	26459
5	May	8917	8786	130	77138
6	Iyun	12630	12526	148	108418
7	Iyul	16872	16676	151	197395
8	Avgust	14687	14531	120	124566
9	Sentyabr	7011	6923	90	33465
10	Oktyabr	548	503	45	5045
11	Noyabr	241	215	26	2444
12	Dekabr	201	183	18	2034
	Jami	66334	65401	933	588862

Izoh: vazirlar mahkamasining 2015 yil 30-sentyabrdagi 278-sonli qaroriga asosan to‘lovlar amalga oshirilgan

Zomin milliy tabiat bog‘i va uning atrofidagi dam olish maskanlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, mahalliy aholini turizm sohasi bilan bandlik darajasi ham o‘rganildi. Milliy tabiat bog‘i atrofidagi 30 km radiusdagi aholi punklarida mahalliy aholi o‘rtasida turizm sohasi bilan bandlik darajasini aniqlash uchun sotsialogik so‘rovnama o‘tkazildi. Natijada, mehnatga yaroqli aholi o‘rtasida turizm sohasi bilan bandlik holati tahlil qilib chiqildi.

Tahlil natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtida 30 km radiusda mahalliy aholining sayyoohlarga servis xizmati ko‘rsatish bilan bandligi - milliy tabiat bog‘iga 10 km uzoqlikdagi O‘rikli, Qorong‘ulisoj va Tog‘terak kabi qishloqlarda 75 %, 20 km uzoqlikdagi Duobada 50 %, 30 km uzoqlikda bo‘lgan Xulkar va Qo‘riq qishloqlarda 30 % ni, o‘rta hisobda esa 50-60 % tashkil qilmoqda.

Zominsuv havzasiga sayyoohlarni jalb qiladigan joziba - faqatgina tabiat emas, balki o‘ziga xos bo‘lgan gastroturizmning mavjudligidir. Bu yerda ayrim taomlar sa’nat darajasida tayyorlanib, ularning mazasini shahar restoranlarida ham uchratish qiyindir. Quy go‘shtidan tayyorlanadigan tandir, yaxna va barra kaboblar, qolaversa qozon patir va uning saryog‘i, boshqa hududlarda tayyorlanadigan shunday taomlardan o‘ziga xos ta’mi bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Zominda taom tayyorlash sirlarini uch, to‘rt avloddan beri bir-biriga o‘rgatib kelayotgan mashhur oilalar ham bor.

Zomin tandir go‘shti mazasining siri shundaki, taom tayyorlashda ishlataladigan go‘sht, albatta tog‘ qo‘ynida boqilgan qo‘y yoki sarka go‘shti bo‘lishi kerak. Shuningdek, hidli archa va tog‘ zirovorlari ham tandir go‘shtiga o‘ziga xos ta’m va maza beradi.

Bu yerda gastroturizmning o‘ziga xos yana bir ekzotik turi: xo‘randalar tomonidan baliq tutish va tutilgan baliqlardan oshpazlar tomonidan turli xil taomlar tayyorlab berish xizmatlari ham bor. Zomin shahridan Zomin milliy tabiat bog‘iga boriladigan yo‘lning bo‘yida, ya’ni Xulkar qishlog‘ida “Sehrli qarmoq” dam olish maskani joylashgan. Dam olish maskanining o‘ziga xos tomoni shundaki, sun’iy ravishda ko‘l tashkil qilingan. Ko‘lda bir necha turdagи baliqlar boqiladi.

“Sehrli qarmoq”ga kelgan dam oluvchilar hohishiga qarab ularga qarmoqlar beriladi. Dam olishning zavqli tomoni shundaki, sayyoohlar tomonidan tutilgan baliqdan shu vaqtning o‘zida oshpazlar tomonidan turli xil taomlar tayyorlab berish yo‘lga qo‘yilgan. Dam olish maskaniga kelgan sayyooh, nafaqat ovqatlanish orqali, balki tog‘ havosidan nafas olish hamda baliq ovlash orqali ham dam olishi mumkin.

Zominsuv havzasida turizmini rivojlantirish orqali, nafaqat Zomin tumani tog‘li hududidagi mahalliy aholisini turizm sohasiga doir ishlar bilan mashg‘ul qilish orqali ish bilan ta’milanganlik darajasini oshirish mumkin. Mahalliy aholining 50 % yoki undan ko‘proq qismi turizm sohasiga taalluqli ishlar bilan band bo‘ladigan bo‘lsa, ushbu hududlarni “turistik hudud” sifatida e’lon qilish mumkin. Jumladan, 2019 yili Zomin tumanidagi Duoba qishlog‘iga “turistik qishloq” maqomi berildi.

Zominsuv havzasida xalqaro tog‘ turizmini keng mashtabda rivojlanishi bilan bir qatorda, unga to‘sinq bo‘luvchi ba’zi bir faktorlar ham mavjuddir. Tog‘larda xalqaro tog‘ turizmini rivojlanishiga to‘sinq bo‘luvchi omillarni shartli ravishda 2 ga bo‘linadi. Bular ichki va tashqi omillar.

Tog‘larda dam olish zonalarini tashkil qilishda to‘sinq bo‘ladigan ichki omillarga, bahor va yoz fasllarining boshlarida tez-tez takrorlanib turuvchi sel toshqinlari, yo‘l qurish va elektr energiya bilan ta’minalash kabi muammolar kiradi. Tog‘larda qorlar erishi va yomg‘irlar yog‘ishi bir vaqtga to‘g‘ri kelgan vaqtłari katta-katta sel toshqinlari kuzatiladi. Tog‘larning relyef xususiyatlari yo‘l qurilishi uchun juda noqulay hisoblanadi. Bu o‘z navbatida, tog‘larda keng ko‘lamli yo‘l qurilish ishlari olib borilsa, tabiatga katta zarar yetkaziladi. Baland tog‘ hududlariga elektr liniyalarini o‘tkazish esa katta xarajatlar talab qilinadi.

XULOSA

Tog‘larda dam olish zonalarini tashkil qilishda to‘sinq bo‘ladigan tashqi omillarga, Zominsuv havzasidagi ko‘plab xushmanzara joylari, qo‘sni Tojikiston respublikasi bilan o‘tadigan davlat chegarasiga yaqin joylashganligidir. Shu sababli ham bu hududlarda katta-katta dam olish zonalarini tashkil qilish davlat strategiyasiga to‘g‘ri kelmaydi.

Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra dam olish zonalarini tashkil qilishda an’anaviy usul bo‘lib qolgan katta-katta binolar qurish emas, balki zamonaviy ko‘rinishdagi chodir (o‘tov) lar tashkil qilish lozim. Dam olish chodirlari mavsumiy holda, tog‘larning davlat chegaralariga yaqin

joylarda ham tashkil qilish mumkin. Dam olish chodirlari katta maydon talab qilmaganligi sababli, sel yo'llaridan uzoqroqda joylashtirish imkoniyati bo'ladi. Shuningdek, chodirlarni elektr energiya bilan taminlashda muqobil energiya (quyosh, shamol va bioenergiya) lardan unumli foydalansa, elektr liniyalarini o'tkazish uchun katta mablag'lar talab qilinmaydi.

Tog'larda avtomobil yo'llarini qurishda qiyalik 12-15⁰ dan oshmasligi kerak. Tog'larda qiyaligi yuqori bo'lgan joylarda esa osma sim yo'llar barpo etish lozim. Ba'zi bir so'qmoq yo'llar ot, eshak, tuyu kabi mahalliy ulovlar orqali bosib o'tilsa bo'ladi. Bunday xarakatlanishlar orqali tog' tabiatidan to'la bahra olinadi. Shuningdek, tekislikdan toqqa tez ko'tarilganda uchraydigan tog' kasalliklarini ham oldi olinadi. Eng muhim tabiat qo'ynida bunday dam olish atrof-muhit tabiatiga salbiy ta'sir etmaydi va qolaversa, BMT tomonidan ishlab chiqilgan "Ekologik dastur" talablariga to'liq mos keladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. Alibekov L.A. Inson va tabiat. Samarqand 2020.
- [2]. Alibekov L.A. Zomin milliy bog'i va geoekologik muammolar yechimining geografik asoslari. –Toshkent: "Fan va texnologiya", 2013.
- [3]. G'o'dalov. M.R. Jizzax viloyati tabiatini muhofaza qilish. Toshkent: "Fan va texnalogiya", 2014
- [4]. G'o'dalov.M.R. Muxamedov O. L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar. Guliston 2021.
- [5]. Mamatqulov M, Oripov K. O'zbekiston g'orlari. - T.: 1978. – 7 6.
- [6]. Mirzayev M, Aliyeva M. Turizm asoslari. - T.: 2011. - 93 6.